

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 237 (1298), 2024-yil 22-noyabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



HUQUQ-TARTIBOT IDORALARI O‘RTASIDA YAQIN MULOQOTNI YO‘LGA QO‘YISH ZARURLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-noyabr kuni amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Rossiya Federatsiyasi Bosh prokurori Igor Krasnovni qabul qildi.



Ikki tomonlama keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini oliy darajada erishilgan kelishuvlarga muvofiq rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Terrorizm, ekstremizm, kiberjinoyatlar, korrupsiya va noqununiy migratsiyaga qarshi kurashish sohalarida, jinoiy aktivlarni qaytarish, sun‘iy intellekti joriy etish va raqamlashtirish borasida bosh prokuraturalar o‘rtasidagi hamkorlikning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

Mamlakatlarimiz prokuratura idoralari o‘rtasida yaqin muloqotni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro aloqa va almashinuvlarni kengaytirish, qo‘shma tadbirlar o‘tkazish zarurligi ta’kidlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

SPORT YOSH AVLODNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL ETIB TARBİYALASH VOSITASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-noyabr kuni yoshlarni sportga keng jalb etishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili bo‘yicha davlat dasturi doirasida navqiron avlodga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. 10 milliondan ziyod aholi ommaviy sport bilan shug‘ullanmoqda. Barcha hududlarda, ta’lim va mehnat jamoalarida turli musobaqalar o‘tkazilmoqda.

Davlat dasturida jamoaviy sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Masalan, jamoaviy sport turlari bo‘yicha “Mahalla ligasi” va “Maktab ligasi” musobaqalarini yo‘lga qo‘yish taklif etilmoqda. Davlat oliy ta’lim muassasalarida sport klublari tashkil qilish, ular o‘rtasida “Talabalar ligasi”, “Vazir kubogi” va “Rektor kubogi” kabi musobaqalar o‘tkazib borish ko‘zda tutilmoqda.

Jamoaviy sport turlari bo‘yicha milliy ligalar qo‘llab-quvvatlanadi. Mahalliy hokimliklar huzurida hududiy sport klublari tuziladi. “ERP Sport” elektron tizimida

iqtdorli yoshlarni aniqlash, tanlash va seleksiya qilish joriy etiladi.

Yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish masalalariga ham e’tibor qaratildi.

Taklifga ko‘ra, haftaning har payshanba kuni “jismaniy tarbiya va sport kuni” sifatida belgilanadi. Jalb qilingan yoshlar soni hamda erishilgan natijalarga qarab, sport maktablari xodimlariga ustama beriladi. Shuningdek, infratuzilmadan kelib chiqib, muassasalar muayyan sport turlariga ixtisoslashtirib boriladi.

Tizim maktablarida ommaviy sport bo‘yicha trener-seleksioner lavozimi joriy etilib, ularga beshtagacha mahalla va ta’lim muassasalarida mahalla va ta’lim muassasalarida to‘garaklar tashkil etgan trenerlar qo‘shimcha rag‘batlantiriladi.

Prezident sport sohasi yoshlarga oid davlat siyosatining katta yo‘nalishi ekanini ta’kidlab, joylarda bu boradagi qulayliklarni kengaytirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk etib tarbiyalash bo‘yicha fikrlarini bildirdi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI A‘ZOLARINI TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 21-noyabr kuni tegishli qarorlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a‘zolariga nomzodlar ma’qullandi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga muvofiq:

Achilbay Jumaniyazovich Ramatov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari;

Djamshid Anvarovich Kuchkarov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vaziri;

Jamshid Abduraximovich Xodjayev — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari;

Zulayxo Baxriddinova Maxkamova — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi;

Laziz Shavkatovich Kudratov — O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri;

Botir Erkinovich Xaxidov — O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri;

Ibroxim Yulchiyevich Abdurahmonov — O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri;

Shavkat Raximovich Xamrayev — O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri;

Sherzod Saidjanovich Xidoyatov — O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri;

Ixam Rustamovich Maxkamov — O‘zbekiston Respublikasi transport vaziri;

Jo‘rabek Tursunpulatovich Mirzamahmudov — O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri;

Bobir Farxadovich Islamov — O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri;

Sherzod Xotamovich Shermatov — O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vaziri;

Aziz Abdulkaxarovich Abdulkaximov — O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri;

Asilbek Anvarovich Xudayarov — O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri;

Xilola Uktamovna Umarova — O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri;

Kongratbay Avezimbetovich Sharipov — O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri;

Adxam Ixamovich Ikramov — O‘zbekiston Respublikasi sport vaziri;

Ozodbek Axmadovich Nazarbekov — O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri;

Akbar Djurabayevich Tashkulov — O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri;

Baxtiyor Odilovich Saidov — O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri;

Abdulla Xamidullayevich Kuldashiev — O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vaziri;

Po‘lat Razaqovich Bobojonov — O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri;

Baxodir Nizamovich Kurbanov — O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a‘zolari etib tayinlansin.

2. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

XORIJDA ISTIQOMAT QILAYOTGAN VATANDOSHLARGA BIR QATOR HUQUQ VA IMTIYOZLAR BERILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yurtimizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishga intilayotgan vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi.

Qaror xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash, tarixiy Vatani atrofida yanada jipslashtirish, qalbi va ongida yurt bilan faxrlanish tuyg‘usini yuksaltirish, milliy o‘zligini saqlab qolish va ular bilan doimiy muloqotni kengaytirishga qaratilgan.

“Vatandosh” tushunchasi sifatida — kelib chiqishi O‘zbekiston hududidan bo‘lgan yoxud etnik, til va madaniy-tarixiy nuqtayi nazardan o‘zini o‘zbeklar yoki qoraqalpog‘lar sifatida identifikatsiya qilgan, O‘zbekiston Respublikasi bilan madaniy-gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa aloqalarni rivojlantirishga harakat qilayotgan shaxslar va ularning avlodlari tushunilmoqda.

Hujjat bilan vatandoshlarga qo‘shimcha huquq va imtiyozlar beradigan “Vatandosh” guvohnomasi hamda “Vatandosh” kartasi joriy etilmoqda.

“Vatandosh” guvohnomasi — yurtimizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan xorijdagi vatandoshlarga beriladi hamda “Vatandosh

kartasi”ni olish uchun asos bo‘ladi. “Vatandosh” kartasi — 5 yilgacha muddatga ID-karta shaklida rasmiylashtiriladi.

Guvohnoma va karta O‘zbekistonda aksiya (ulush) sotib olgan, xorijiy yoki qo‘shma korxonada tashkil qilingan, yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, xalqaro imiji yanada yuksalishiga hissa qo‘shgan vatandoshlarga beriladi.

Bunda ushbu guvohnoma va kartaga ega bo‘lgan vatandoshlarga quyidagi huquq va imtiyozlar beriladi:

— O‘zbekiston hududiga vizasiz kirish va chiqish;

— O‘zbekiston hududida ishlab huquqini tasdiqlovchi hujjatsiz mehnat faoliyatini olib borishda O‘zbekiston hududida yashash guvohnomasi talab qilinmaydi;

— ko‘chmas mulk sotib olishda chet el fuqarolariga nisbatan belgilangan ko‘chmas mulk miqdorlari tatbiq etilmaydi;

— o‘zi va oila a‘zolariga O‘zbekiston Respublikasi

fuqarolari uchun belgilangan shartlarda tibbiy, ta’lim va boshqa davlat xizmatlaridan foydalanish;

— oila a‘zolariga davlat bojisiz ko‘p martalik viza olish va uning amal qilish muddatini O‘zbekiston hududidan chiqmasdan uzaytirish;

— oila a‘zolarini vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda davlat bojidan ozod qilish.

“Vatandosh” guvohnomasini berish to‘g‘risidagi qaror idoralararo kollegial organ — Komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Mazkur qaror bilan belgilangan huquq va imtiyozlar mamlakatimiz taraqqiyotiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shayotgan vatandoshlarimizni rag‘batlantirish bo‘yicha tizimli ishlarning mantiqiy davomidir.

Qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, qarordan kelib chiqadigan qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirish kiritish yuzasidan mas’ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

Yangi O‘zbekiston ruhi

YUKSAK TARAQQIYOT SILSILASI



Har bir kun — taraqqiyot saridir. Muhimi, ishonch va harakat. Va yana — istak. Hayot esa har birimizdan fidoyilikni, uyg‘oqlik ruhini talab qiladi. Ayniqsa, bugungi shiddatli zamon, tahlilga to‘la davr shuni taqozo etyapti.

Ba‘zan kishi bir maromda yashashga ko‘nikib qoladi. Nega shunday, buni tushunish qiyin. Ammo vaqti kelib, atrofda bo‘layotgan o‘zgarishlardan sergak tortasiz. Shunda fikr ummonidagi shavqdan vujudingiz yayraydi. Hayotga saril tafakkur uhdasi bilan qaray boshlaysiz.

Agar bu tasviri butun bir jamiyat makoniga mengzab tasavvur etsak, masala butkul jiddiylashadi. Aytmoqchimizki,

tarixiy fursatlarning qimmatini har doim ham anglab yetavermaymiz. Ko‘pincha to‘kis hayot tarzi ruhiyatimizga, fitratimizga “achchiq uyqu” ufurganini sezmay qolamiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning saylovdan keyingi birinchi majlislarida so‘zlagan uch kunlik nutqi shu kunlarda barchamizga jo‘shqinlik ulashib, katta maqsadlar sari chorlab

turibdi. Xalqimiz islohotlarga to‘la hayotiga navbatdagi yorqin orzu-umidlarni nishonlarini qadamog‘da.

“Oldimizdagi yillar yangi O‘zbekistonimiz jadal rivojlanadigan, yanada yuksak taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etadigan davr bo‘ladi”, demoqdamiz.

Davomi 3-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2024-yil 21-noyabr

KO'ZLANGAN MARRALARGA ERISHISH UCHUN BARCHA IMKONIYATLAR YETARLI

Iqtisodiy yuksalish xalqimizning hayotini keskin o'zgartirmoqda



Qobil TURSUNOV, Oliy Majlis Senati a'zosi:

— "O'zbekiston — 2030" strategiyasida kelgusi yillar uchun katta marralar belgilab olingan. Xususan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti

hajmini 160 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan. Dastlab bunga ayrimlar shubha yoki ikkilanish bilan qaragani ham bor haqiqat. Ammo o'z vaqtida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilgani, barcha imkoniyatlar ishga solingani tufayli shu yilning o'zida yalpi ichki mahsulot hajmi 110 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Albatta, bu yutuqlar barchamizni ruhlantiradi.

Ayni paytda islohotlar shiddatini pasaytirmasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotimizdagi o'zgarishlarni jadal davom ettirsak, 2030-yilga borib, iqtisodiyot hajmini 200 milliard dollarga yetkazish mumkin. Bu esa xalqimizning turmush darajasi va hayot sifatini keskin yaxshilashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari shu xususda to'xtalib, bunday natijalarga erishish uchun kuch va imkoniyatimiz ham, salohiyatimiz ham yetarli ekanini alohida ta'kidlagan. Islohotlarni izchil davom ettirish va ko'zlangan marralarga erishish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi.

Tegishli vazifalar har birimizning zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi

Nazira MUXTOROVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida ishtirok etib, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan ma'ruzani tingladik. Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalar har birimizning oldimizga katta mas'uliyat qo'ydi.

Ma'ruzada ta'kidlanganidek, 2024-yilda aholi jon boshiga daromad 3 ming dollarga yetishi kutilmoqda. Bu iqtisodiyotimiz rivojlanishining yorqin ko'rsatkichidir. Agar 2018-yilda bu raqam 1600 dollar bo'lganini hisobga olsak, bunday natijaga erishish yo'lida qanday katta qadamlar qo'yilganini ko'ramiz.

Jahon banki 2024-yilda O'zbekistonni Yevropa va Markaziy Osiyoda iqtisodiyoti eng tez o'sayotgan 3 ta davlat qatoridan joy olganini e'tirof etdi. Ushbu e'tirof yuksak marralar yo'lida qilayotgan harakatlarimiz to'g'ri yo'lida ekanligidan dalolatdir.

Iqtisodiy o'sishdan ko'zlangan asosiy maqsad, bu — aholimiz turmush darajasini yanada



yaxshilashdir. Amalga oshiriladigan iqtisodiy islohotlar sabab kelgusi 5 yilda aholi jon boshiga daromadni 5 ming dollardan oshirish, kambag'allik darajasini 5 foizga tushirish, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirib, to'liq tibbiy sug'urta tizimiga o'tish maqsad qilingan.

Yig'ilishdagi muhokamalardan kelib chiqib shunga amin bo'ldimki, yangi hukumat, barcha mas'ul rahbarlar bu rejalarini amalga oshirish uchun bor imkoniyatni ishga soladi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun mustahkam huquqiy asos



Ruslan SOBIROV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Prezidentimiz Qonunchilik palatasidagi ma'ruzalarida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta'minlash masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Shuningdek, ba'zi holatlarda hujjatlar jamoatchilik muhokamasiz qabul qilinayotganini, bu esa aholi ishonchini so'ndirishi mumkinligini ta'kidlagan.

Davlatimiz rahbari ushbu masalada Adliya vazirligi oldiga jiddiy vazifalar qo'ydi. Endi vazirlik mazkur masala bo'yicha takliflar ishlab chiqishi, ularni Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi

bilan chuqur tahlil qilgan holda, hukumatga kiritishi belgilandi. Normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonlarini ochiq va jamoatchilik bilan bamaslahat amalga oshirish, nafaqat qonunchilik hujjatlarining sifati va xalqchilligini ta'minlaydi, balki jamoatchilik fikrini inobatga olish orqali ularning hayotga tatbiq etilishini, ijrosini ham yengillashtiradi.

Shaxsan men deputat sifatida normativ-huquqiy hujjatlarni muhokama qilish jarayonida aholi, mutaxassislar va fuqarolik jamiyati institutlarining fikrini tinglash zarur va juda foydali deb hisoblayman. Bunday yondashuv hujjatlarining sifati va amaliy samaradorligini oshiradi. Jamoatchilik fikrini inobatga olmagani hujjatlar kelgusida muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlar jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi fuqarolarning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. Chunki hujjatlar xalq uchun ishlab chiqiladi va ularning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Biz uchun har bir fuqaroning fikri muhim va davlat organlari bu masalada faol bo'lishi shart.

Ishonchim komilki, bu chora-tadbirlar orqali normativ-huquqiy hujjatlarimiz qabul qilinishida shaffoflik va samaradorlik yangi darajaga ko'tariladi. Bu esa, o'z navbatida, yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Munosabat

PARLAMENT VA MAHALLIY KENGASHLAR FAOLIYATINING YANGI BOSQICHI



Bahodirjon YUNUSOV, Markaziy saylov komissiyasi a'zosi

Yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning birinchi yalpi majlislarida Prezidentimiz qatnashdi va parlament palatalarining kelgusidagi faoliyati yo'nalishlarini belgilab berdi. Davlatimiz rahbari Qonunchilik palatasida to'g'ridan to'g'ri ishlaydigan va aniq ijro mexanizmlariga ega qonunlar ishlab chiqishni kengaytirishga e'tibor qaratdi. Shuningdek, parlament va deputatlik nazorati imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlagan. Qonunchilik palatasi fuqarolik jamiyati institutlari bilan muloqotni kuchaytirishi uchun har bir qo'mita huzurida ularning vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlarini tuzish maqsadga muvofiqligini qayd etdi.

Qo'mitalarning vazirliklar bilan ishlashida faqat nazorat va talab etish emas, balki yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish, e'tibor, avvalo, jamiyatdagi dolzarb masalalar yechimiga qaratilishi kerakligini aytdi. Ayniqsa, investitsiya dasturlarini tayyorlashda deputatlar ham ishtirok etadigan, ularning fikri inobatga olinadigan tizim yaratilishi, hududlarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish maqsadida kelgusi yildan yer, mol-mulk va aylanma soliqlarni to'liq, daromad solig'ining esa kamida 50 foizini tuman va shaharning o'zida qoldirish taklif etilgan deputatlarimiz o'z saylov okrugiida saylovchilar o'rtasida obro'sini oshirishga xizmat qiladi.

Deputatlar har bir masalaga yondashuvda, qonunlar ishlab chiqishda uzoq-yaqin tumanlardagi insonlarni ko'z oldiga keltirib, faqat bugunni emas, kelajak avlodlarni ham o'ylab ish tutishi — eng asosiy maqsad.

Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida davlatimiz

Bugun mahalliy kengashlarning mustaqil ish yuritishida dastlabki qadamlar qo'yildi. Bundan buyon kengash so'rovi va kengash tekshiruv kabi yangi mexanizmlar orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazorat kuchaytiriladi hamda 2026-yildan boshlab tuman va shahar kengashlariga hokimlar raislik qilmaydi.

Shu vaqtgacha amal qilib kelingan vakolatlarning qonunchilikdagi o'zgarishlar tufayli ijroiya hokimiyatidan olib qo'yilishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan masalalar yechimini topishda mahalliy kengashlar hamjihatlikda, birlikda ish ko'rishi muhim.

Ayni paytda yangi saylangan deputatlar hamda hokimliklar xodimlarining xalq deputatlari kengashi va uning doimiy komissiyalari faoliyati to'g'risidagi qonunchilik normalardan to'la xabardor bo'lmasligi mahalliy kengashlar tomonidan qabul qilingan qarorlar



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mahalliy kengashlarning qarorlari qonunchilikka muvofiq bo'lishini ta'minlash bo'yicha Senatga katta mas'uliyat yuklatilgan. Yig'ilishda Oliy Majlis Senati bu borada ochiqlik va shaffoflikni, qonuniyligini ta'minlash bo'yicha samarali tizim yaratishi kerakligi ta'kidlandi.

rahbari bugungi tahlikali vaziyatda faqat kuchli iroda, birlik va hamjihatlik, qattiq mehnat bilangina yurtimizda tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashga erishish mumkinligini bildirdi. Senatorlarga, mahalliy kengashlarga saylangan deputatlarga shu o'tkir haqiqatni, o'z zimmlaridagi ulkan mas'uliyatni chuqur anglab ishlashi lozimligini qayd etdi.

Hozir ko'plab davlatlardagi demokratik qadriyatlardan g'arazli maqsad yo'lida foydalanmoqchi bo'lgan turli kuchlar o'rtasida hokimiyatni egallash maqsadida fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini buzishga qaratilgan xunrezliklar sodir bo'layotgani sir emas.

Davlatimiz rahbari xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri kengashlariga hokimlar emas, balki deputatlar orasidan saylangan kengash raislari boshchilik qilishi va endi hamjihatlikda ishlash lozimligini ta'kidlagan.

va hujjatlar ijrosida tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Shuning uchun mahalliy kengashlar deputatlarini o'qitish, o'rgatish va birgalikda masalalarni ko'rib

Parlament oldiga qo'yilgan hayotiy masalalarni hal etishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining professional tarzda qonunlar yaratishi, Oliy Majlis Senati esa hududiy muammolarni hal etish masalalarini davlat manfaatlarini bilan uzviy ravishda bevosita mahalliy kengashlar bilan hal etib borishi yangi O'zbekiston parlamenti takomillashuvida muhim qadam bo'ladi.

chiqishda senatorlar har bir mahalliy kengash bilan yaqindan hamkorlik qilishi zarur.

organlarining yangi vakolatlari" mavzusida o'quv-amaliy seminar o'tkazish;

— muayyan mahalla hududidagi muammoni aniqlash va uning yechimida qaror qabul qilish mexanizmi bo'yicha tajriba almashish;

— saylovchilar bilan uchrashuv o'tkazish va kelib tushgan takliflarni taalluqliligiga ko'ra tuman, viloyat, respublika darajasida hal qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish tajribasini yo'lga qo'yish;

— mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbar va mutaxassislari uchun "Deputat so'rovi", "Kengash nazorati" mavzularida o'quv mashg'ulotlari o'tkazish;

— xalq deputatlari mahalliy kengashi sessiyasida ijroiya organlari rahbarlari hisobotini eshitish jarayonida ko'rilayotgan masalalarning shu hududdan saylangan deputat tomonidan qay darajada o'rganilgani bo'yicha deputatlarimiz ham axborotini eshitish tajribasini yo'lga qo'yish.

Parlament oldiga qo'yilgan hayotiy masalalarni hal etishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining professional tarzda qonunlar yaratishi, Oliy Majlis Senati esa hududiy muammolarni hal etish masalalarini davlat manfaatlarini bilan uzviy ravishda bevosita mahalliy kengashlar bilan hal etib borishi yangi O'zbekiston parlamenti takomillashuvida muhim qadam bo'ladi.

Taraddud

O'tgan 2023-2024-yillarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari uchun 14 trillion so'm yo'naltirilgan edi. Shu yil esa bunga qo'shimcha ravishda yana shuncha mablag' ajratilishi belgilangan. Bu haqda joriy yil 10-iyun kuni Prezidentimiz raisligida energiya resurslaridan samarali foydalanish hamda energetika sohasi obyektlari kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ma'lum qilingan edi.

Ko'sh, Surxondaryo viloyatida qish mavsumiga tayyorgarlik qanday? Aholiga hamda ijtimoiy soha obyektlariga ko'mir yetkazib berish qay darajada tashkil etildi? Havo harorati pasayishi bilan energiya resurslariga, jumladan, ko'mirga talab ortdi. Surxondaryoda joriy kuz-qish mavsumida aholi, korxonalar va tashkilotlarning ko'mirga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash uchun puxta tayyorgarlik ko'rildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, vohada bu yilgi ehtiyoj uchun 111,5 ming tonna ko'mir yetkazib berish reja qilingan. Shundan 55,9 ming tonnasini aholi, 35,9 ming tonnasini esa ijtimoiy soha obyektlari uchun mo'ljallangan.

Masalan, Termiz tumanidagi mavjud 30 ta mahalladagi 20 ming 850 ta xonadonning 2582 tasida ko'mirga ehtiyoj borligi aniqlangan.

SURXONDARYODA AHOINI KO'MIR BILAN TA'MINLASH HOLATI QANDAY?

Ayni paytda ana shu xonadonlar va 84 ta ijtimoiy soha obyekti Angren ko'mir konidan olib kelingan mahsulot yetkazib berilmoqda.

— Joriy yil kuz-qish mavsumi uchun barcha resurslar hozirlangan. Ijtimoiy soha obyektlari allaqachon to'liq ko'mir bilan ta'minlangan. Reja bo'yicha Termiz tumaniga 1291 tonna ko'mir berilishi belgilangan, — deydi Termiz tumanidagi ko'mir ombori mudiri Komil Siddiqov. — Gaz bilan ta'minlanmagan hududlar to'la qamrab olinmoqda. Hozirgacha 60 foiz hudud aholisiga arzon narxlarda ko'mir tarqatib bo'lindi.

"Surxondaryo ko'mir ta'minot"

mas'uliyati cheklangan jamiyatga qarashi omborlar aholining arzon va sifatli ko'mirga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda yaxshi samara bermoqda.

— Qishning sovuq va qirovli kunlaridan oldin bunday e'tibor va yaratilgan sharoitdan mamnunmiz. Gazlashtirilmagan, murakkablik tug'dirgan mahallalarga o'z vaqtida ko'mir tarqatilyapti. Mahsulot arzon va sifatli. O'zimiz 1,5 tonna ko'mir oldim. Qish mavsumiga to'la yetadi, — deydi Termiz tumanida yashovchi Hamid Shukurov.

Prezidentimizning "Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya

qilish to'g'risida"gi qaroriga asosan, Surxondaryoning Muzrabot, Bandixon, Qiziriq, Angor, Termiz hamda Jarqo'rg'on tumanlaridagi ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimi yangilanmoqda. Xususan, Muzrabot tumanida 104 ta ijtimoiy soha obyekti mavjud. Bugungacha ularning 68 tasida davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy pechlar o'rnatildi.

2024-2025-yil kuz-qish mavsumida talab etiladigan ko'mir belgilangan grafik asosida tumanlarga yetkazib berilmoqda. Buning uchun 13 ta hududiy ko'mir ombori mavsumga shay holga keltirildi. Maxsus yuklovchi va yuk tashuvchi transport vositalari orqali viloyatdagi olis, borish

qiyin bo'lgan 29 ta mahalladagi aholi va ijtimoiy soha obyektlariga ko'mir yetkazib berilmoqda.

— Aholini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida viloyat bo'yab ko'mir tarqatilishi tizimli yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, mavsum davomida aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib, rejalashtirilgan hajmdagi ko'mirning qolgan qismi ko'mir omborlariga yetkazib beriladi, — deydi "Surxondaryo ko'mir ta'minot" MCHJ boshlig'i Humoyiddin Po'latov. — Barcha tumanlarda mahalla fuqarolar yig'ini raislari jalb qilingan holda aholiga arzonlashtirilgan ko'mir yetkazib berilmoqda. Viloyat va tuman sektor rahbarlari tomonidan aholi xonadonlarini ayni sovuq kunlar oldidan issiqlik bilan ta'minlash maqsadida arzonlashtirilgan ko'mir mas'ullar tomonidan har bir oilaga belgilangan me'yorda, o'rnatilgan narxlarda sotilishi ta'minlanmoqda.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

YUKSAK TARAQQIYOT SILSILASI



Salim DONIYOROV

Boshlanishi 1-betda

Uyug'ruhi, azmu shijoatga to'la bu gap bizni bugungi islohotlarni nuktadan zehn shodasiga terish, yangi davr o'zgarishlari mohiyatini teran ilg'ab olishga chorlab turibdi.

O'Q TOMIRLAR
JO'SHQINLIGI

Insoniyat o'z yelkasida doim tirikchilik qayg'usini ko'tarib keladi. Bu so'z kundalik fe'limizga shu qadar singib ketganki, hatto uni o'zaro munosabatlarga yangil ko'chiriz: "Tirikchilik, do'stim, tirikchilik", deya kulib qo'yamiz.

Ammo mohiyat-mazmuniga ko'ra, butun hayotimiz, milliy davlatchilik prinsiplari, fonyi dunyoqarashimiz, umuman, insoniylik ongi zamirida ana shu qayg'u doim birlamchi ahamiyat kasb etgan, hayot sahanasida lov-lov yonib turgan. Va bu hamisha o'zini, o'zlikni anglash tolesi bilan yonma-yon yashagan.

Bundan aytar muaddo shuki, tirikchilik — zamon bilan hamnafaslik, degani. O'zlikni anglash esa — tanadagi nafsi muqaddas tushunchalar va insonga xos xarakterlar bilan qurshab borishdir. Shunda tabiatda buyuk muvozanat hodisasi paydo bo'ladi. Aks holda, jaholatga yo'l ochiladi.

Davlatimiz rahbari kechagi majlisda "Bizning ikkita o'q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot, biri — ma'naviyatdir. Ma'naviy buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo'ladi", dedi.

Bundoq o'ylab qarasa, biz yuqorida hayot mohiyatini izohlashga urinayotgan barcha fikrlar ana shu ikkita gap zamirida o'z quvvatiga ega ekanini tushunib yetish mumkin. Demak, muvoqasa qilsak, iqtisodiyot — tirikchilik, ma'naviyat — o'zlik ekan.

Bugun yuksalish yo'lining murakkab chorrahasidan o'tib, navbatdagi katta yo'lga tushgan yangi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, iqtisodiy hamda falsafiy evrilishlaridan taralayotgan ohanglar bizga, xalqimizga, umuman, keng dunyo jisimga yangi-yangi axborotlarni singdirmoqda.

Bular nimalarda namoyon bo'ladi? Milliy taraqqiyotimizning avval hech kuzatilmagan mutlaqo yangi davri — o'tgan sakkiz yil mobaynida biz nimalarga erishdik?

Ushbu savollarga biz, yuqorida aytganimiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy hafta avvalidagi uchta nutqidani javob topishga harakat qilidik.

Bu haqda so'z yuritishdan oldin, yana bir o'rinni mulohaza yodga tushdi.

2016-yil yakkalari borayotgandagi gap, Prezidentimiz butun xalqimiz uchun mutlaqo kutilmagan, o'ylab o'yiga kelmagan katta islohotlarga tamal toshini qo'ygan vaqtlar edi. Yaqin-yiroq davlatlar nigohi O'zbekistonga qadalgan o'sha chog'lar ko'pchilik xalqaro tahlilchilar, siyosatshunos olimlar, mintaqashunos ekspertlar Shavkat Mirziyoyevga o'ta og'ir siyosiy va iqtisodiy meros qolganida fikrlar bildirgandi, mamlakatda boshlangan islohotlarga ishonchsizlik bilan qaraganlar ham kam emasdi.

Hozir buni daftan eslaganimiz boisi shundaki, biz avval-boshdanqo marrani baland oldik. Oldimizga katta-katta maqsadlar qo'ydik, hayotimizni ulkan rejalari bilan qurishga kirishdik. Chunki oldimizda boshqa yo'l yo'q, shundoq ham uzoq vaqt bor berilgan yillar zahmatiga barham berish kerak edi.

Bugun biz erishgan natijalar bundan sakkiz yil oldingi ko'rsatkichlardan yer bilan osmoncha farq qiladi. O'zgina mubolag'a bilan aytadigan bo'lsak, shu sakkiz yilda sakkiz yillik ishini uddalay oldik.

Biz iqtisodchi emasmiz, shu bois, raqamlar tilida gaplashishda qiynalamiz. Ammo ba'zi raqamlar oddiy odamlarni ham o'ylantirib qo'yishi bor gap. Masalan, o'tgan yillarda iqtisodiyotimiz 2 karra o'sib, 100 milliard dollarlik tarixiy marradan oshdi, shu tariqa 2016-yilda mamlakatimizda aholi jon boshiga daromad 1,5 ming dollar atrofida bo'lsa, hozir 3 ming dollarga yetishi kutilmoqda.

Bu butun mamlakat bo'ylab yashash sifati ikki karra yaxshilandi, yurtdoshlarimiz hayoti, sakkiz yil oldingi davr bilan solishtirganda, ikki barobar farovonlashdi, degani.

“

Agar kimdir chetdan kelib, O'zbekiston o'tgan sakkiz yilda nimaga erishdi, deya savol bersa, javobimiz shudir: biz o'tgan davrda hamjihatlikda, birgalikda harakat qilib, ulkan marralarni zabt etishga erishdik. Buning asosi nima, deyishsa, yana aytamiz: ma'naviy yuksalish hodisasi. Qalbimizda bir butun xalq tuyg'usi uyg'ongani.

Yoki yana bir misol keltiraylik. Yaqinda Jahon banki tomonidan e'lon qilingan ma'ruzada O'zbekiston 2024-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida yalpi ichki mahsulotning eng yuqori o'sishi kuzatilayotgan uch davlatdan biri sifatida e'tirof etildi.

Shunday bo'lishini hech xayolimizga keltirganimiz? Menimcha, yo'q.

Xo'sh, dunyo iqtisodiyoti va mamlakatlar rivojida o'ziga xos o'ringa ega obro'li xalqaro tashkilotning yurtimiz haqida bunday xulosaga kelishiga nima sabab bo'ldi?

Aytish kerakki, bunga, avvalo, yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi islohotlar sabab. Chunki butun mazmun-mohiyati yuqoridan pastga, ya'ni xalq orasiga kirib borishga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar xalqimiz hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Aniq maqsadli chora va rejalari, muloqotlar orqali jamiyat hayoti chuqur tahlil qilindi. Sodda qilib aytganda, odamlar turmushining pastu balandi atrofiga o'rganildi. Tahlil va o'rganishlar amaliy harakatlarga ko'chdi.

Shularni o'ylab, bugungi hayotimizni o'tgan davr bilan taqqoslab yaxshi yashashga zavqimiz yuz chandon oshadi-da, axir. Lekin bu hali biz uchun marra emas. Oldimizda juda katta imkoniyatlar, maqsadlar bor.

Hayotda turfa taqdirga ega odamlar bo'ladi. Ular fe'liga yarasha yashaydi. Yaxshini, yaxshilikni gapirgan, yomonlikka yo'yadiganlar ham topiladi. Ammo hozir bizning maqsadimiz boshqa: adolat nuqtayi nazaridan gapirish.

Shuning bilan boshqa mavzuga o'tamiz. Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining saylovdan keyingi birinchi majlisida "Ba'zi xalqlar uchun bir kunni, bir daqiqani tinch va osoyishta o'tkazish orzu-armonga aylantirmoqda", dedi.

Zamonni qoralama, derdi ota-bobalarimiz. Bu hikmatni endi-endi anglab yetaymizki, zamonni quruvchi o'zimiz ekanmiz. Bunda, yuqorida aytganimizdek, nafsni tarbiyalash, o'zlik mohiyatini quvvatlantirish hayot-mamot masalasiga aylanib boraveradi.

Shukronalikda gap ko'p. Mana qarang, jonajon yurtimizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda. Kun sayin zamon bilan hamnafas, tabiat bilan uyg'un, kelishib yashash yo'lidamiz.

Alloh bergan ne'matlardan unumli foydalanishimiz kerak. Faqat tabiat qonunlariga qarshi chiqmagan holda. Buning tagida gap ko'p, falsafasi buyuk.

Prezidentimiz 2025-yilni mamlakatimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili", deb e'lon qildi. Bu o'z-o'zidan, tasodifan bildirilgan taklif emas. Buning zamirida biz hozir aytayotgan fikrlarga qanchalik hamohanglik borligini keng mushohada qilib ko'rishimiz kerak bo'ladi.

"Biz mo'tabar ona zotini qanday yuksak hurmat-ehтиrom qilsak, o'zimizni qurshab turgan tabiatga ham shunday munosabatda bo'lishimiz zarur. Zero, tabiatni asrash — insonni asrash demakdir", dedi davlatimiz rahbari.

"Ona — tabiat — inson" halqasi yorug' olamdagi tirilik asosidir. Bu uch xilqatsiz dunyo o'z maqomini yo'qotadi, mohiyatan va shaklan o'zga bir dunyo paydo bo'ladi. Shu bois, tabiat va inson o'rtasidagi muvozanat buzilmasligi tarafdorimiz.

Bugun biz ana shu yo'lni tanlamoqdamiz. Keling, fikrimizni bir misol bilan o'lchaylik.

Yangi O'zbekiston tashabbuskori — Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 7-noyabr kuni qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida kanallarda yiliga 13 milliard kub metr (33 foiz) suv yo'qotilayotganini aytgan edi. Bunday sharoitda nima qilish kerak? Yechim aytildi: agar kanallar betonlansa, yo'qotishlar sezilarli darajada kamayadi.

Albatta, bu o'z-o'zidan bo'lmaydi, betonlash ishlari kattagina mablag' so'raydi. Shu mablag' o'zini qoplaydimi? Qoplar ekan. Betonlangan kanallarda suv oqimi tezlashadi. Natijada ularda kichik GESlar qurish va bu orqali muqobil energiya ishlab chiqarish mumkin. Bu ichki imkoniyatdan unumli va o'z o'rnida foydalanish deyiladi.

Sezyapsizmi, bular mamlakatimizda aniq va puxta rejalari asosida izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini ochib beryapti. Bugungi va ertangi taraqqiyotimizga daxldor tasavvurlarimizni yanada boyitaypti. Mohiyatni chuqur anglash

esa islohotlar samaradorligiga ham yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Darvoqe, samaradorlik haqida. Davlatimiz rahbari kambag'allik darajasiga tushib qolgan odamlarning ongini o'zgartirish, ularda ertangi kunga ishonch va kelajakka intilish hissini uyg'otish haqida ham gapirdi. Ishni mahallabay tashkil qilib, 2025-yilda 1 million aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha navbatdagi katta marra belgilab olindi.

Inson ongini o'zgartirish oson ish emas. Ayniqsa, u tushkunlik girdobida bo'lsa. Ammo hamma ishini uddalasa bo'ladi. Buni mamlakatimizda amalga oshirayotgan ayrim sa'y-harakat samarasi yaxshilash ko'rib chiqamiz.

Mamlakatimizda Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G'ijduvon tumanlarida amalga oshirilgan ishlarning ijobiy natijalari asosida "Kambag'allikdan farovonlik sari" kompleks dasturi qabul qilinganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Lekin e'tibor qiling, dastur nomining o'ziyoq kishida ertangi farovon kunlarga umid va ko'tarinki kayfiyat ulashadi.

Prezidentimiz tashabbusiga ko'ra, endilikda ko'p qirrali yondashuvlar asosida kambag'allar a'zolariga sifati ta'lim berish, ularni kasbga o'qitish, ish bilan ta'minlash, sog'lig'ini yaxshilash, psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha ko'mak berish paketlari individual bo'ladi. Bundan tashqari, ijtimoiy ahvoli og'ir mahallalarda infratuzilma yaxshilanadi.

O'zingiz o'ylab ko'ring, kambag'al oila farzandlari sifati ta'lim olsa, oliy ma'lumot, kasb-hunar egallasa, ertaga u butun boshli oilasini tushkun muhitdan olib chiqib ketishga qodir bo'ladi.

“

Bugun biz erishgan natijalar bundan sakkiz yil oldingi ko'rsatkichlardan yer bilan osmoncha farq qiladi. O'zgina mubolag'a bilan aytadigan bo'lsak, shu sakkiz yilda sakkiz yillik ishini uddalay oldik. Biz iqtisodchi emasmiz, shu bois, raqamlar tilida gaplashishda qiynalamiz. Ammo ba'zi raqamlar oddiy odamlarni ham o'ylantirib qo'yishi bor gap. Masalan, o'tgan yillarda iqtisodiyotimiz 2 karra o'sib, 100 milliard dollarlik tarixiy marradan oshdi, shu tariqa 2016-yilda mamlakatimizda aholi jon boshiga daromad 1,5 ming dollar atrofida bo'lsa, hozir 3 ming dollarga yetishi kutilmoqda.

Mahallalar infratuzilmasi yaxshilanishi esa, avvalo, o'sha hududda istiqomat qilayotgan aholini doimiy va daromadli ish o'limi bilan ta'minlash, deganidir.

Umuman olganda, bu kabi iqtisodiyot, qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasidagi islohotlar ko'lami juda keng. Ular haqida soatlab gaplashish mumkin. Lekin shu narsani aniq va lo'nda aytish mumkin, mamlakat taraqqiyotini, hayot tarozisi muvozanatini ta'minlovchi kuch bu — iqtisodiyot. Uning har tarmog'idagi o'zgarish barchamizning hayotimizda sezilyapti. Buni sezish uchun esa kishida tahlil qila olish qobiliyati bo'lishi kerak, xolos.

O'zbekistonning butun dunyoda nufuzi yuksalib borayotgani ham tahlilga arziqli yutuqdir. Bugun dunyo O'zbekistonni tashabbuskor davlat sifatida bilmoqda va tan olmoqda. O'tgan davrda bevosita Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari asosida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 11 ta rezolyutsiya qabul qilingani ham yangi O'zbekiston solnomasida tarixiy hodisadir.

Bu ham tasodif emas. Har bir e'tirof o'z asosiga ega. Boisi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev butun insoniyat taqdiriga daxldor tashabbuslarni ilgari suryapti. Bundan dunyo mamlakatlari, yer yuzi aholisi manfaatdor. Shu ma'noda, bizning Prezident dunyoning qaysi mamlakatiga bormasin, qaysi bir xalqaro nufuzli tadbirda ishtirok etmasin, nafaqat oliy martabali shaxslar, tanliq davlat va siyosat arboblari, balki o'sha mamlakat odamlari ham u kishini juda katta ehtirom va hurmat bilan kutib oladi.

QALBIMIZDA
BIR BUTUN XALQ
TUYG'USI BOR

Biz bugun "ta'sirlar" og'ushidan chiqib ketdik. O'z yo'limizni topdik va shu yo'lda dadil, azmu shijoat bilan ketib boraymiz.

Agar kimdir chetdan kelib, O'zbekiston o'tgan sakkiz yilda nimaga erishdi, deya savol bersa, javobimiz shudir: biz o'tgan davrda hamjihatlikda, birgalikda harakat qilib, ulkan marralarni zabt etishga erishdik.

Buni bejiz ta'kidlayotganimiz yo'q, maishiy masalalar bilan band insonlarda ulkan orzular bo'lmaydi. Xalqni ulug' maqsadlarga boshlay olish, ertangi kunga bo'lgan mustahkam ishonchga bog'liq. Ana shunday ishonch bilan mustahkamlangan jamiyatda birdamlik, vatanparvarlik ruhi jadal shakllana boradi. Bu buyuk hodisani xalqimiz bugun bevosita Prezident Shavkat Mirziyoyev fenomeni bilan ulug'laydi.

Iqtisod va ma'naviyat ikkita ustun ekani bejiz aytilmadi. Hayot haqiqati shuki, bu ustunlar yurt ravnaqi, xalq manfaati uchun xizmat qiladi. Go'yoki qush qanotlari parvoz ishonchi va bardavom bo'lishini ta'minlaganidek, bu qo'sh ustun ham bir-biridan quvvat oladi.

Tarix guvoh, iqtisodiy jihatdan yuksalgan, ammo axloqsizlik, ma'naviy tanazzulga yuz tutgan imperiyalar qisqa vaqtda parokanda bo'lgan. Bunday holatlarni yuksak tafakkur bilan tahlil etgan qadimgi donishmandlardan biri Pomponiy "Ayrinlar shu qadar zulmatga botganlarki, yorug'likdagi hamma narsani noaniq ko'radilar", deydi.

Yorug'likdagi narsalarni noaniq ko'rish — ertangi kunga bo'lgan ishonchning yo'qolishidir. Ishonch yo'qolgan joyda fitnalari avj oladi. Maqol ohangi bilan aytganda, yetasang ko'rolmaslar, yetmasang berolmaslar ko'payadi.

Yuqulaymiz sababi dastlabki kunlardan xalqimiz ongida o'sha ishonchni amaliy ishlar orqali oqilona o'rganimizda bo'ladi. Endi bu ishlarni yangi davrga mos tarzda davom ettirmoqchimiz. Zero, yoshlar, umuman, butun jamiyatda yurt uchun bor quvvatini sarf etishga tayyor bo'lish ana shu ishonchga bog'liq.

Buning uchun, avvalo, iqtisodiy masalalarni hal etishga jiddiy e'tibor berildi. Masalan, oilaviy tadbirkorlik, hunar o'rganish uchun juda katta imtiyozlar, imkoniyatlar yaratildi. Hatto ikkita ish o'rni yaratgan tadbirkor davlat rahbari e'tiboridagi shaxs bo'lishi bot-bot takrorlandi.

Tarixda ilk bor yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanini belgilandi. Shu bilan bir qatorda ta'lim olishga keng imkoniyatlar yaratildi. Yoshlar, ayniqsa, xotin-qizlarning oliy ma'lumot olishi uchun imtiyozlar, qabul kvotalari oshirildi.

Faktlarga murojaat qilsak, o'tgan davrda 25 mingdan ziyod xususiy bog'cha, 70 ga yaqin nodavlat oliyog' tashkil etildi. Natijada bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish 74 foizdan, yoshlarning oliy ta'limga jalb qilish ulushi 39 foizdan oshdi. Qisqa vaqtda bunday katta ko'rsatkichga erishish o'z-o'zidan bo'lgani yo'q, albatta.

Birgina navbatdan MTT faoliyat ko'rsatishni boshlagan paytdan boshlab 10-yil muddatga barcha turdagi soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalari majburiy ajratmalardan ozod qilindi. Bundan tashqari, ular DXSH to'g'risida bitim tuzilgan kundan boshlab 2-yil muddatga — tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kelinadigan asbob-uskunalar, inventar, o'quv qo'llanmalari va o'yin zonalarini uchun bo'xona to'lovlarini ham to'lamaydi. Agar hisob-kitob qilinsa, bular juda katta miqdordagi mablag'ga aylanadi.

Bu birgina xususiy bog'chalar uchun berilgan imtiyozlardan ikkita, xolos. Sanoqni, o'qituvchilarning maoshini oshirish, minglab ta'lim dargohlarining ta'mirlanishi, ilmiy daraja olishdagi imtiyoz va imkoniyatlar kengayishi kabi jihatlar bilan uzoq davom ettirish mumkin.

Yana bir muhim jihat, navqiron avlod kitobxonligi uchun yuksak mukofot bilan taqdirlanadigan bo'ldi. "Yosh kitobxon", "Kitobxon oila" tanlovlari mutlaq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz haqli ravishda kitobxonlikning eng faol targ'ibotchisi, deya e'tirof etildi. Demochimizki, islohotlarning dastlabki davridayoq barcha jabhalarda uzoq istiqbolga mo'ljallangan aniq rejalari belgilab olingan edi. Bu o'zgarishlar orqali Uchinchi Renessans poydevorini yarataymiz. Buning uchun yuqorida aytilganidek, juda ko'p asoslar yaratildi.

Zamon tezkor, davr bilan hamnafas bo'lish oson emas. Shunday vaqtda boshlangan islohotlarni jadal davom ettirish, muhimi, ularning samaradorligini oshirish zarur. Buning uchun bugunimizga munosib tarzda iqtisodlarning yangi davrini boshlash ehtiyoji bor edi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqida ilgari surilgan tashabbuslar tom ma'noda islohotlarning yangi davrini boshlab berdi.

E'tiborlisi, yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni yaratish uchun hech narsani ayamadan, bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilishi ko'zlanmoqda. Buning uchun, avvalo, yoshlarimiz ongu tafakkurida milliy g'urur bilan birga umumbashariy qadriyatlar hamat hissini kamol toptirish zarur. Maqsadlarni amaliy qiyofa kasb etishi uchun esa yoshlarga oid davlat siyosati takomillashtiriladi.

"Bugun faqat mana shunday ilg'or yoshlarga, mana shunday jonkuyar ziyolilarga, Vatan ravnaqi yo'lida birlashgan xalqqa ega bo'lgan davlatgana o'z milliy manfaatlarini ta'minlashga erisha oladi", dedi davlatimiz rahbari. Yangi O'zbekistondagi iqtisodiy yuksalishni ma'naviy qudrat bilan boyitishga qaratilgan islohotlardan shunday yoshlarni kamol toptirish, jonkuyar ziyolilarni oldingi safga chiqarish ko'zlangan. Buning uchun ko'pmillatli xalqimiz yagona Vatan, ahil oila bo'lib olg'a intilmog'i lozim. Bugun xalqaro maydonda va ichki siyosatimizda ilgari surilayotgan tashabbuslar, olib borilayotgan islohotlar qalbimizda bir butun xalq bo'lish tuyg'usini uyg'otishga qaratilgan bilan ham ahamiyatli.

Zero, yuksak ma'naviyatli jamiyatda odamlar qonunlarga og'ishmay rioya qiladi. Natijada turli qonunbuzarliklar kamayadi. Halol mehnat qiladiganlar sak kengayadi. Bu barqaror iqtisodiyotni ta'minlaydi. Qolaversa, har bir insonning ishga, mehnat qilishga bo'lgan munosabati ma'naviy dunyoqarashiga bog'liq. Ma'naviyatli insonlar o'z ishini mas'uliyat bilan bajaradi, bu esa umumiy ishlab chiqarishni oshiradi. Ayni paytda bunday insonlar bilim olishga, yangi texnologiyalar yaratishga va zamon bilan hamqadam bo'lishga intiladi. Bunday sifatlar o'z-o'zidan jamiyatda inson qadriini oshiradi. Hamjihatlikni mustahkamlab, iqtisodiy o'sishning izchilligini ta'minlaydi.

Buning uchun qonuniy asoslarni mustahkamlab oldik. Mamlakatimizda yangilangan Konstitutsiyamizga muvofiq ilk bor parlament saylovini aralash saylov tizimida o'tkazdik. Ko'plab davlatlarda bunday islohotlarni o'tkazish uchun o'n yillar kerak bo'ladi. Ammo bizdagi shiddat, yangilangan jamiyatimiz va xalqimizning o'z taqdiriga ishonch ruhi bu yo'lda bizga katta kuch, zo'r motivatsiya berdi, deyishimizga bugun to'laqonli haqlimiz.

Yana bir gap, bugun biz har bir yutuqqa erishilgan buyuk xalqimizga tayanamiz. Buyuk xalqning iqtisodiyoti ham buyuk bo'ladi. Bir yoqadan bosh chiqarib, barchamiz birlashib harakat qilishimiz kerak. Bunday tarixiy imkoniyatlar ilgari hammamizga orzu edi. Bugun esa bu orzularni amalga oshirish imkoniyatlar yuzaga keldi. Mana shu qutlug' yo'l har bir yurtdoshimiz ko'ksida navbatdagi yorqin orzu-umidlari nishoni bo'lib porlaydi.



Agrar tarmoq

KOOPERATIVLAR QISHLOQ XO'JALIGIGA QANCHALIK NAF KELTIRADI?



faoliyatini amalga oshirish uchun pay usuliga, jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning ixtiyoriy

“

YIRIK EKSPORTCHILAR HAR BIR MAHSULOT YETISHTIRUVCHI BILAN ALOHIDA-ALOHIDA EMAS, BALKI ULARNI BIRLASHTIRGAN KOOPERATIV BILAN SHARTNOMA QILADI. NATIJADA "BIR KONTUR — BIR MAHSULOT" ASOSIDA EKIN JOYLASHTIRILISHI TA'MINLANADI.



ravishda birlashishiga asoslangan mustaqil tijorat tashkiloti ekanini mustahkamlab qo'yilmoqda.

U o'z faoliyatida xalqaro umumiy tirof etilgan tamoyillarga asoslanadi. Ixtiyoriy va ochiq a'zolik, a'zolar tomonidan demokratik nazorat, iqtisodiy ishtirok, kooperativlar o'rtasida hamkorlik, jamiyat uchun g'amxo'rlik prinsiplari shular sirasiga kiradi.

Bundan tashqari, mahsulotlarni ekishdan to bozorga chiqarishgacha bo'lgan jarayonda o'ziga xos xizmatlar yaratiladi. Kooperativ faoliyatini yangi formatda tashkil qiladi. A'zolariga zarur resurslarni yetkazib, agronomiya, buxgalteriya xizmatlari ko'rsatadi, sertifikatlar oladi va mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga chiqaradi. Ya'ni kooperativning asosiy faoliyati qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatishdir. Ular mahsulot yetishtirish va unga qo'shilgan qiymat qo'shish bilan birga, o'z a'zolariga zarur moddiy resurslarni yetkazib berish, marketing va logistika xizmatlarini ham taqdim qiladi.

Kooperativ a'zolarining eng kam soni 7 nafar jismoniy yoki yuridik shaxs etib belgilanmoqda.

Qolaversa, u manfaatlaridan kelib chiqqan holda top menejrlarni, xalqaro ekspertlarni, malakali mutaxassislarni yollashi mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini vertikal yetkazib berish zanjirlarini yaratish maqsadida integratsiyalashgan qishloq xo'jaligi kooperativlari tuziladi. Ushbu yangi norma mahsulotni qayta ishlash, sotish va eksport qilish bo'yicha muvaffaqiyatli agrobiznesning asosini yaratish imkonini beradi.

Investitsiya kirituvchi a'zo kooperativ faoliyatida bevosita ishtirok etmaydi, lekin ovoz berish huquqiga ega bo'ladi. Vakolat berilgan vakil 200 dan ortiq a'zoga ega bo'lgan kooperativda bir guruh a'zolar tomonidan saylanib, ularning nomidan ish yuritish huquqiga ega. Kooperativlar yillik audit tekshiruvidan o'tkaziladi. Auditor nafaqat moliyaviy-iqtisodiy holatni aniqlashi, balki faoliyatida uchrayotgan muammolarni tahlil qilgan holda maslahat xizmati ko'rsatadi.

Bu borada davlatning ham o'ziga xos vazifa va majburiyatlari mavjud. Jumladan, agrar

iqtisodiy siyosat orqali qulay muhitni ta'minlash, rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi maqsadli dasturlarni ishlab chiqish davlatning zimmasida.

Xalqaro doirada, xususan, Germaniya, Fransiya va Yaponiyada kooperativlarning imoji jiddiy. Ularda tayyorlanadigan mahsulotlarga talab yuqori. Umuman, 100 dan ortiq davlatda kooperativ munosabatlari alohida qonun bilan tartibga solinadi. Germaniya, Niderlandiya, Italiya, AQSH, Kanada, Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreyada kichik ishlab chiqaruvchilarning 70 foizi qishloq xo'jaligi kooperativlari orqali xomashyo oladi, xizmatlardan foydalanadi va o'z mahsulotlarini bozorga chiqaradi.

Germaniyada 1998-2023-yillarda faoliyatini integratsiyalash orqali qishloq xo'jaligi kooperativlari 25 mingdan 2,3 mingga birlashgan, barcha a'zolar soni 1,4 millionni tashkil qiladi. Italiyada "Pontasiyev" vinochilik kooperativi uzum yetishtirish va vino tayyorlash bilan birga a'zolarini kreditga uy-joy bilan ta'minlaydi. Bolalarni tarbiyalash, o'qitish va davolash xizmatlarini ham ko'rsatadi.

Qonun bilan qishloq xo'jaligi kooperativlarini tartibga soluvchi normalar birinchi marta yagona, keng qamrovli va oson tushunarli tarzda huquqiy hujjatda birlashtirildi. Bu kooperativ munosabatlarni kompleks huquqiy tartibga soladi. Qonun hujjatlaridagi ziddiyat va bo'shliqlarni bartaraf etadi. Ishlab chiqaruvchilarning o'zaro hamkorligini, o'z tashabbusi bilan qishloq xo'jaligi kooperativlarini tashkil etish, ularni professional va demokratik yo'l bilan boshqarish hamda qishloq xo'jaligida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida muntazam rivojlanib kelayotgan zamonaviy kooperativ munosabatlari tartibga solinadi. Kooperativlarning huquqiy kafolati yaratiladi. Jarayonda klaster korxonalarini va boshqa tadbirkorlik subyektlarini o'zaro manfaatli tarzda birlashtiradi.

Bozor mexanizmlarini faol joriy etish, erkin raqobat muhitini shakllantirish, mavjud tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanish natijasida qishloq xo'jaligida investitsiya jozibadorligi oshadi. Ishlab chiqaruvchilarning bir jamoa bo'lib muvaffaqiyatli erishish, o'z-o'ziga yordam berish ko'nikmalari shakllanib, manfaatlari ta'minlanishiga shart-sharoitlar yaratadi.

Agroklasterlar, fermerlar, dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari va boshqa subyektlarning kooperatsiya munosabatlarida ishtiroki faollashadi. Tashish, saqlash, qadoqlash, tovar sifatini nazorat qilish bo'yicha xizmatlar rivojlanadi va ulardan foydalanish imkoniyati kengayadi. Kompleks marketing va logistika tizimlari yaratilishi esa ichki va yangi tashqi bozorlarga chiqish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi kooperativlarining vositachilik vazifasi orqali agroklasterlar, fermerlar, dehqon xo'jaliklari va boshqa shakldagi qishloq xo'jaligi korxonalarini o'rtasidagi hamkorlik kengayadi. Muammolarga birgalikda yechim topiladi. Yirik eksportchilarga yo'l ishlab chiqaruvchilar har bir mahsulot yetishtiruvchi bilan alohida-alohida emas, balki yetishtiruvchilarni birlashtirgan kooperativ tizimiga ishini tashkil qiladi. O'zaro muvofiqlashgan faoliyat tufayli jahon bozoriga chiqishga yo'l ochiladi. Sifat sertifikatlar talablariga javob beradigan mahsulotlar yetishtirish, ularni qayta ishlash va realizatsiya qilish imkoniyati oshadi.

qo'ymoqchi bo'lgan tashabbuskorlarga umumiy qiymati 701 million so'mlik kredit berildi. Sayxunobod va Uychi tajribasi ham ommalashmoqda. Bu yo'nalishda 900 million so'mlik sarmoya jalb etildi. Shu ishlar bilan kifoyalanib qolayotganimiz yo'q. Hayotda, o'z-o'zini topgan, hurmat-e'tibordagi nuroniyalar, mahalla faollari, tashabbuskor yoshlar bilan aholi farovonligini oshirish, bandlegini ta'minlash uchun berilgan imtiyoz va imkoniyatlardan samarali foydalanish, ilg'or ish tajribasini ommalashtirish borasida targ'ibot-tashviqot ishlari olib boryapmiz. Zero, pul osmondan tushmaydi. Unga mehnat va izlanish orqali erishish mumkin.

Yangi ishlab chiqarish, savdo va servis ko'rsatish tarmoqlari kengaydi. Farg'ona — Qo'qon katta avtomobil yo'lining mahalla hududidan o'tgan qismida qurilish mahsulotlari sotish, yog'ochni qayta ishlashga ixtisoslashgan o'ndan ortiq sanoat tarmog'i, umumiy ovqatlanish shoxobchalari tashkil etildi. Natijada 110 dan ziyod kishining bandligi ta'minlandi.

Yaqingacha qishloqda ichimlik suvi yo'q edi. Yer osti sızov suvi ko'tarilgan tomorqachilik rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelgan. O'tgan yillar davomida bu muammoni bartaraf etish chorasi ko'riladi. Jahon banki homiyligida yer osti sızov suvi "ko'zi" ochilib, yopiq suv inshootlari qurildi. Ta'mirlab yo'llar tuzatildi, elektr ta'minotidagi uzilishlarga barham berildi. Aholi kundalik hayot tarzi uchun muhim bo'lgan yangi infratuzilma tarmoqlari qurish, mavjudlarni ta'mirlash chorasi ko'rilmoqda. Yangi transformator, simyog'och va tungi yoritqichlar o'rnatildi, 1000 dan ortiq xonadonga toza ichimlik suvi olib kiritildi. "Tashabbusli budget" loyihasi asosida 7 kilometrdan ortiq ichki yo'l asfalt qilindi, shag'al yotqizildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar har jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayni kunda saxovatpehalar ko'magida yolg'iz ona Odinaxon Odilova xonadonida ta'mirlash, yangi uy-joy qurish ishlari bajarilmoqda.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mahallaga sanoat kirib keldi va

ISHSIZLIKDAN XOLI HUDUDGA AYLANDI

Kambag'allikdan farovonlik sari

Bu oilani ko'pdan beri bilaman. Qurbonali aka Rishton tumanidagi kulochilik korxonasida mahsulot pishiruvchi, Lobarxon opa to'qimachilik korxonasi ishchisi edi. O'tgan asrning oxirlarida ular mehnat qilayotgan har ikki korxonaga iqtisodiy qiyinchilik tufayli bankrot bo'lib, faoliyatini tugatdi, ish o'rinlari qisqardi. O'z kasbining ustalari bo'lgan mutaxassislar "ko'cha"da qoldi. Bir etak bolasi bilan ishsiz qolgan oila tirikchilik ilinjida turli yumushlarni bajarish, ro'zg'orning qora qozonini qaynatish taraddudiga tushdi.

Oilaboshi ish izlab chet elga ketdi. Maktabni endi tamomlagan Sayfiddin ham otasi izidan ishga o'tandi. Say vaqt o'tib, kenja o'g'il Strojiddin ham xorijda ishlash, ro'zg'orga yordam berish harakatiga tushdi. Oila mehnatiga yarasha birmuncha pul ham topdi. Ammo "qo'ldan berganga qush to'yamas", deyilganidek, topgani ro'zg'orning kam-ko'stidan ortmasdi...

Keyingi yillarda hunarmandlik, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlohtor oilaning ham hayot tarzini o'zgartirdi. Ota-ona, ikki o'g'il bir maqsad yo'lida hamjihat bo'lib, chinni buyumlarga qol solish, pishirish yo'nalishida yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yib, 20 ga yaqin ish o'rni ochdi.

Mahalliy xomashyodan tayyorlanayotgan chinni mahsulotlarining bozori chaqqon. Har oyda 10 turgadi 80 ming donadan ortiq chinni buyumga bezak berib, sotaymiz, — deydi yakka tartibdagi tadbirkor Sayfiddin O'tanov. — O'n yilga yaqin muddat chet elda ishlash, birimiz ikki bo'lmadi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlaganimizdan buyon hayot tarzimizda

o'ziga xos o'zgarishlar yuz berdi. Endi nafaqat ishli bo'ldik, balki mahalladoshlarimizni ham doimiy ish bilan ta'minladik. Shu yilning o'zida yaqin qo'shni mamlakatlarga 40 ming dollardan ziyod chinni buyumlar yetkazib berishni ko'zlab turibmiz. Bularning barchasi mehnat va izlanishlarimiz, yaratib berilgan imtiyoz va imkoniyatlar samarasidir.

Rishton tumanidagi "To'da" mahalla fuqarolar yig'ini sanoatlashib borayotgan hudud sifatida ko'pning e'tiboriga tushdi. "Mahalla yetilligi" qishloqqa sanoatni olib kirish, tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirish, imkoniyatlarni kengaytirish orqali o'zini va boshqalarni band qilishga erishish, mablag'lardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish ishlarni tizimli bajarilmoqda. Shu kunga qadar sanoat yo'nalishida 44 ta tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, 260 dan ortiq yangi ish o'rni ochildi. "Biznesga bir qadam" loyihasi asosida ishsiz 22 kishiga 17 million so'mdan kredit ajratildi. Bu kabi amaliy misollar ko'lami kundan kunga kengayib bormoqda. Mahalla hududida "To'da" kichik sanoat zonasini ochildi.

Bu yerda kulochilik va chinniga bezak berish yo'nalishlarini qamrab olgan 10 ta istiqbolli loyiha ishga tushirildi.

Tadbirkor Mirzohid Tursunov asos solgan "Javohir keramika" oilaviy korxonasi ana shunday loyihalarni sirasiga kiradi. Soz tuproqdan kulochilik buyumlari ishlab chiqaruvchi tarmoqda 50 dan ortiq doimiy ish o'rni ochildi.

Ishsizligim tufayli "Ayollar haftasi"ga kiritilgandim, — deydi O'g'illov Qobilova. — Dastlab sanoat kasb-hunar maktabida tikuvchilikni o'rganib, sertifikat oldim. Keyin menga subsidiya asosida tikuv mashinasi berildi. Bu uy yumushlari, farzand tarbiyasini tashlab qo'yilmagan holda tadbirkorlik bilan

shug'ullanish imkonini berdi. Mahalliy xomashyodan ko'rpa-to'shak, oshxona anjomlari tayyorlayman. Ayni kunda faoliyatimni kengaytirib, kasanachilik asosida qo'shimcha ish o'rinlari ochdim. Shu tariqa o'zimiz o'zimiz band qildim, ro'zg'orimizga qut-baraka kirdi. Hamma narsaga mehnat va izlanish bilan erishsa bo'lar ekan. Buni hayotiy tajribamda sinab ko'ryapman.

Yil avvalidagi sarhisoblariga ko'ra, mehnat migratsiyasida bo'lgan 80 nafar yoshdan shu kunga qadar 30 nafari yaqinlari bag'riga qaytib kelib, kafolatlari ish o'rinlari bilan ta'minlandi. 231 yosh hamda xotin-qizlarga o'zini o'zi band qilish uchun imtiyozli kredit ajratildi,


110 xonadon tomorqasida limonchilik, sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan yangi issiqxonalar qurib berildi.

— Kulochilik va chinni buyumlarga bezak berish mahallamizning o'sish nuqtasi etib belgilangan, — deydi hokim yordamchisi Ayyubxon Abdullayev. — Ayni kunda 1236 ta oila bu ish bilan shug'ullanadi. Bugun hududimizda rasmiy ro'yxatga olingan 6 nafar ishsiz bor. Ularni ham foydali mehnatga jalb etish chorasi ko'rilmoqda. Mahallamizni ishsizlik, kambag'allikdan xoli hududga aylantirish borasida aniq chora-tadbirlar belgilab olingan. Shu kunga qadar sanoat yo'nalishida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga



RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR

SOHADA O'ZINI O'ZI BAND QILGAN SHAXSLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH DASTURI AMALGA OSHIRILADI



Sharh

Bugun mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va raqamlashtirish sohasida elektron davlat xizmatlari ko'rsatishda yuqori natijalarga erishilmoqda. Xususan, joriy yilning birinchi yarim yilligida axborot texnologiyalarini sohasida eksport hajmi 254,4 million dollarga yetkazildi. Aholi yashash punktlarini telekommunikatsiya xizmatlari bilan qamrab olish doirasida 21,5 ming kilometr optik to'la aloqa liniyalari tortildi. Xalqaro magistral avtomobil yo'llari bo'yab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrov darajasi 85 foizga chiqdi. Yil yakuniga qadar bu ko'rsatkichni 90 foizdan oshirish rejalashtirilmoqda.



2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmon bilan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Prezidentimizning joriy yil 14-oktabrdagi "Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan sohada yangi imkoniyat va imtiyozlar berilmoqda.

Farmondan ko'zda tutilgan asosiy maqsad mamlakatimizda dasturi mahsulotlar ishlab chiqarish, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy hamda IT xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarining eksport salohiyatini oshirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishdir, — deydi IT park direktori o'rinbosari Jahongir Rajabov. — 2019-yilgacha bor-yo'g'i 20 ga yaqin xorijiy korxonalar IT park rezidentlari bo'lgan. Joriy yilning o'tgan davrida ular soni 600 ga yetdi.

Hujjatda berilgan imtiyozlar, xususan, kalendar yil davomida jami daromadi tarkibida IT park rezidentlari tomonidan amalga oshirishga ruxsat etilgan faoliyat turlari bo'yicha eksporti hajmi 50 foizdan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga, kalendar yil davomida o'n sakkiz yoshdan oshgan bitiruvchilarining 50 foizdan ortiq qismi rezident bo'lgan eksportchi korxonalariga ishga joylashgan IT ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga belgilangan tartibda nazarda tutilgan soliq va bojxona imtiyozlari 2028-yil 1-yanvardan 2040-yil 1-yanvargacha qadar uzaytirilgan xorijiy investorlar ishonchini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Sohaga e'tibor va rag'bat natijasida joriy yil yakuniga qadar axborot texnologiyalari sohasi eksporti hajmi bir milliard dollarga yetkazildi va 2030-yilgacha bu ko'rsatkichni 5 milliard dollarga yetkazish ko'zda tutilmoqda.



Mazkur hujjatning ayrim asosiy jihatlari e'tibor qaratish joiz. Farmonga ko'ra, dasturi mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlariga qo'shimcha faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatishga ruxsat beriladi. Xususan, axborot texnologiyalari sohasida tashkil etiladigan ta'lim xizmati doirasida, ushbu xizmatdan yillik umumiy daromadning 40 foizdan oshmaganda, ingliz tili bilan bir qatorda boshqa xorijiy tillarni ham o'qitish, internet orqali axborot xizmatlarini eksport qilish faoliyati doirasida, ushbu xizmatdan yillik umumiy daromadning 40 foizdan oshmaganda, biznes jarayonlar avtorsingini yo'nalishi bo'yicha ta'lim faoliyati amalga oshiriladi. Shuningdek, internet orqali bilim jarayonlari avtorsingini xizmatlarini xorijiy davlatlarga eksport qilish ko'zda tutilmoqda. Shu kungacha axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlariga amalda faqat

ingliz tilida ta'lim berish imkoniyati mavjud bo'lgan bo'lsa, endi boshqa xorijiy tillarda ham ta'lim berish faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat etilmoqda. Bu, o'z navbatida, rezidentlarning eksport geografiasini kengaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. 2025-yil 1-fevraldan boshlab 2030-yil 1-yanvargacha qadar eksport xizmatlari hajmi kalendar yil davomida 10 million dollardan oshgan IT park rezidentlariga axborot texnologiyalari sohasidagi xizmatlarini ko'rsatgan, O'zbekiston Respublikasi bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risida bitim tuzilgan davlatlarning yuridik shaxslari ushbu kalendar yil yakuniga qadar foyda solig'idan ozod etiladi. 2025-yil 1-fevraldan boshlab 2040-yil 1-yanvargacha qadar jami daromadi tarkibida eksporti hajmi 50 foizdan ortiq bo'lgan IT park rezidentlarining ta'sischari O'zbekiston

Respublikasi norezidentlari bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning dividendlar tarzidagi daromadlariga O'zbekiston Respublikasining rezidentlari singari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda foyda solig'ining 5 foiz stavkasi ta'biq etiladi.

Internet tarmog'ida yuz milliondan ortiq auditoriyaga ega xorijiy axborot resurslari va tizimlari (shu jumladan, veb-saytlar, platformalararo resurslar, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar) reklama xizmatlaridan foydalanilganda, kalendar yil davomida eksport tushumlarining 10 foizi doirasida, biroq 100 ming dollardan ko'p bo'lmagan miqdorda reklama xizmatlari bo'yicha to'lovlar haqidagi ma'lumotlar Tashqi savdo operativlari yagona elektron axborot tizimiga kiritilgan taqdirda 2025-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha qadar tajriba-sinov tariqasida IT park rezidentlariga korporativ bank kartalari orqali reklama xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirishga ruxsat etiladi.

2028-yil 1-yanvargacha qadar raqamli texnologiyalar sohasida o'zini o'zi band qilgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash dasturi amalga oshiriladi. Bunda dastur ishtirokchilariga IT park rezidenti maqomi beriladi.

Farmon bilan raqamli texnologiyalar sohasidagi xizmatlar eksportini oshirish va mamlakatimizga ushbu sohada xorijiy kompaniyalarni jalb qilish bo'yicha choratadbirlar rejai ham tasdiqlandi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratish orqali aholi turmush sifati yanada yaxshilanadi

Bugun dunyo ko'z o'ngimda shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar turmushimiz, qadriyatlarimiz, g'ohida e'tiqodimizni yangi o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, jadal taraqqiy etayotgan sun'iy intellekt sohasi insoniyatga aql bovar qilmash yutuqlarni va'da etmoqda.

Azaldan ong va aql faqat insondagina mavjud, u biologik va ijtimoiy asosga ega hodisa deb hisoblangan. Ammo bu tushuncha keyingi yuz yilda ancha o'zgaradi.

Yuqori darajadagi psixika va tafakkur asosidagi tabiiy ongdan farqli o'laroq, sun'iy intellekt avvaldan belgilangan algoritmlar paradigmasi va

dasturlar kombinatsiyasiga asoslanadi. Ya'ni bu inson aqliga tayanib bajaradigan jarayonlarning mashina va kompyuter tizimlari tomonidan bajarilishi, simulyatsiya qilinishi. U mustaqil, tabiiy ravishda shakllanmagan, balki inson faoliyati mahsulidir.

Joriy yil 14-oktabrda Prezidentimiz "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Mazkur qaror ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hujjat bilan sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha qadar rivojlantirish bo'yicha erishish lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar belgilandi. Xususan, sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturi mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard dollarga, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish, hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida O'zbekiston Respublikasining birinchi 50 ta o'ringidagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish rejalashtirilgan.

— Sun'iy intellektning asosiy uchta ustuni bor, — deydi Raqamli texnologiyalar vazirligi departamenti bosh mutaxassisi Fazliddin Anvarov. — Birinchisi, mutaxassis kadrlar. Ikkinchisi, katta hajmdagi ma'lumotlar, uchinchisi, yuqori quvvatli hisoblash mashinalari. Ana shu maqsadda 2025-yil 1-sentabrgacha qadar loyihalar va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida qonunchilik hujjatlarini talabalariga muvofiq barcha axborot xavfsizligi choralari ko'rgan holda "katta ma'lumotlar" bazasini yaratish, 2026-yil 1-maygacha qadar sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish loyihalarini doirasida ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan hisoblash quvvatlarini ishga tushirish vazifasi qo'yilmoqda.

Shuningdek, hujjatda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, sohada standartlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ma'lumotlarni qayta ishlash hamda sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish uchun texnik infratuzilma yaratish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida mazkur yo'nalishdagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Yana bir muhim jihat, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirishdan iborat.

Qaror asosida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini 2024-2026-yillarda amalga oshirish bo'yicha choratadbirlar rejai va ijtimoiy va iqtisodiyot tarmoqlarida shakllantiriladigan "katta ma'lumotlar" ro'yxati tasdiqlandi.

Ushbu hujjatlar mamlakatimizda dasturi mahsulotlar ishlab chiqarish, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy hamda axborot texnologiyalari xizmati ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratish orqali aholi turmush sifati yanada yaxshilashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

MEHR-MUHABBATGA YO'G'RILGAN TA'LIM-TARBIYA

Inson qadri uchun

BMT ma'lumotiga ko'ra, jahonda qariyb 150 milliondan ortiq bola, ya'ni besh yoshdan oshgan har o'n boladan biri mehnatga jalb qilinaypti. Qolaversa, millionlab bolalar oilada, ta'lim jarayoni yoki hayotining boshqa jabhasida kattalarning tazyiqi va zo'rvonligiga uchrarmoqda.



Bugun ham farzandni tarbiyalash uchun jismoniy kuch ishlatilishi zarur deb biladigan ota-onalar yetarlicha topiladi. Zo'rvonlik bolalarning nafaqat jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir qiladi, balki ta'lim olishi va ijtimoiylashuvini ham pasaytiradi.

Qolaversa, ba'zi oilalardagi turmush sharoiti og'irligi, kambag'allik, global migratsiya kabi muammolar ham bolalarning qarovsiz qolishi, tahqirlanishi yoki ekspluatatsiyasi xavfini oshirmoqda. Eng achinarlisi, ko'pincha bolalar zo'rvonlik holatlari haqida gapirmaydi, natijada o'zlariga kerakli yordamni ololmaydi.

Global miqyosda kechayotgan bu muammo mamlakatimiz uchun ham begona emas. Yurtimizda bola huquqlarini himoyalash borasida katta ishlar qilinayotganiga qaramay, bu boradagi kamchiliklar ham yetarlicha. Ijtimoiy tarmoqlarda, avvalo, o'z yaqinlari, qolaversa, boshqalarning tazyiqi va zo'rvonligiga

FARZANDLARNI VOYAGA YETKAZISHDA EZGU NIYATLARIMIZ RO'YOBIGA ZAMIN YARATADI

uchrayotgan bolalar haqida tarqalayotgan xabarlar fikrimiz tasdiq'idir. Shu bois, bunday muammolarga qarshi kurashish davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan.

Prezidentimiz shu yil 19-noyabr kuni bo'lib o'tgan Oliy Majlis Senatining birinchi majlisida so'zlagan nutqida ushbu masalalarga yana bir karra e'tibor qaratib, milliy madaniyatimizga xos bo'lmagan bunday illatlarga qarshi murosasiz munosabatlarda bo'lishimiz va ayovsiz kurashishimiz shartligini, bu masala shaxsan Prezidentning nazoratida bo'lishini alohida ta'kidladi. Prokuratura organlari zo'rvonlikdan jabrlanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ta'sirchan choralarini yanada kuchaytirishi, shunday reja va tashabbuslarni to'liq ro'yog'ga chiqarishda senatorlarning ishtiroki juda muhim ekanini qayd etildi.

Mamlakatimizda Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya 1992-yildagi ratifikatsiya qilingan. Mazkur xalqaro hujjat orqali zimmaga olingan vazifalarni bajarish maqsadida keng qamrovli ishlar bajarilmoqda.

Shu bilan birga, bugun huquqni qo'llash amaliyotida bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Xususan, bolalarga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'rvonlik tarzidagi ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyi qilmishlar sodir etganlik uchun javobgarlik belgilanmagan. Natijada bolalarga, avvalo, o'z yaqinlari

So'nggi yillarda bola huquqi va manfaatlarini ta'minlashga e'tibor yanada kuchaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash kafolatini kuchaytirishga oid yangi normalar kiritildi. Bolalar mehnatiga barham berildi, ular huquqlarini himoya qilish bo'yicha maxsus tashkilotlar ta'sis etildi.

Bolalarga nisbatan zo'rvonlikning barcha shaklini bartaraf etish chorasi ko'rilmog'ida. Qizlar uchun nikoh qurishning eng kichik yoshi 17 yoshdan 18 yoshga oshirildi. Bu bilan voyaga yetmaganlarning manfaatini himoya qilish uchun muhim qadam qo'yildi. Jinoyi javobgarlikka tortish bo'yicha yoshning quyi chegarasi 13 yoshdan 14 yoshga o'zgartirildi. Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilishda pedagog va psixolog ishtiroki belgilandi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy daxlsizlik va erkinlikka qarshi jinoyatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi. Jumladan, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etgan shaxslarning bolalarga ta'lim-tarbiya berishi, ularni sog'lomlashtirishi, bolalar sporti, ijodiy tashkilotlarida ishlashini taqiylovchi qoida kiritildi.

Shu bilan birga, bugun huquqni qo'llash amaliyotida bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Xususan, bolalarga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'rvonlik tarzidagi ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyi qilmishlar sodir etganlik uchun javobgarlik belgilanmagan. Natijada bolalarga, avvalo, o'z yaqinlari

tomonidan zo'rvonlik qilish, farzandiga yetarli darajada g'amxo'rlik qilmaslik holatlari uchray turibdi. Ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi 3 yilda 2072 shaxs ota-onalik huquqidan mahrum qilingan. Shundan 1777 nafari, ya'ni 86 foizi ota-onalik majburiyatini bajarishdan bo'yin tovlagan uchun javobgarlikka tortilgan.

Qolaversa, 2024-yilning 9 oyida 2301 shaxs, ya'ni 1068 ayol va voyaga yetmagan 1233 farzandi vaqtinchalik boshpanalarga joylashtirilgan. Bu muammolar jamiyatimizda oilaviy zo'rvonliklarning oldini olish, undan jabrlanganlarga o'z vaqtida malakali huquqiy, psixologik va tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish sifati oshirishni taqozo etayotir.

Mutaxassislar fikricha, yurtimizda bola huquqlarini muhofaza qilish borasidagi sa'y-harakatlarga qaramay, sohada ayrim kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Oilaviy (maishiy) zo'rvonlikka nafaqat voyaga yetganlar, balki bolalar ham duchor bo'lmoqda. Ammo amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Jinoyat kodekslarining tegishli moddalarida oilaviy (maishiy) zo'rvonlikning qurboni bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar qatoriga bolalar kiritilmagan. Natijada oilaviy (maishiy) zo'rvonlikka uchragan bolalarga nisbatan jinoyat ishlarini malakalashda tergov idoralarda turli muammolar yuzaga kelmog'ida.

2024-yil 21-oktabrda qabul qilingan "Oilaviy (maishiy) zo'rvonlikdan himoya qilish choralarini kuchaytirishni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun sohada muammo va huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishda muhim

dasturlamal bo'ldi. Ushbu qonun bilan tegishli huquqiy hujjatlar qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Birinchi muhim jihat. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodeksida bolaga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'rvonlik qilganlik uchun javobgarlik belgilandi.

Ikkinchi muhim jihat. Jinoyat-protsessual kodeksiga oilaviy (maishiy) zo'rvonlik bilan bog'liq jinoyat ishlarini yuzasidan yarashuv to'g'risidagi arizani qurshitiruv va dastlabki tergov bosqichlarida emas, sud muhokamasi paytida berish tartibi joriy qilindi. Ya'ni oilaviy (maishiy) zo'rvonlik bo'yicha jinoyat ishlarini yuzasidan yarashuv to'g'risidagi ariza faqat ishni sudda ko'rish jarayonida, sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud maslahatxonaga kirishidan oldin berilishi mumkinligi belgilandi.

Bu nega kerak? Chunki tergov bosqichida er-xotin o'zaro yarashgani oqibatida ayblanuvchi tomon jazo muqarrarligini his etmay, bir yil davomida yana qayta zo'rvonlik sodir etishi holatlari kuzatilmoqda. 2023-yil va joriy yilning may oyiga qadar sodir etilgan 894 ta oilaviy (maishiy) zo'rvonlik bilan bog'liq jinoyatlarining 55,6 foizi, ya'ni 506 tasi taraffar yarashgan munosabati bilan tugatilgan. Qolgan 44,4 foizi, ya'ni 388 tasi bo'yicha sud tomonidan tegishli jazolar tayinlangan. Shu sababli bunday o'zgartirishlar kiritilgan juda ahamiyatli.

Qonunning qabul qilinishi oilaviy (maishiy) zo'rvonlik bilan bog'liq jinoyat ishlarining har tomonlama, to'liq va xolisona ko'rib chiqilishiga, tazyiq va zo'rvonlik sodir etgan shaxsning xulqiga ko'rsatiladigan ijobiy ta'sirning kuchini yanada oshirishga zamin yaratadi. Qolaversa, bolalar va xotin-qizlarning tazyiq va zo'rvonlikka uchrashining oldini olish, oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni, shuningdek, xotin-qizlar huquqlariga oid xalqaro indekslarda mamlakatimizning o'zini yaxshilashga xizmat qiladi.

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Nuqtayi nazar

ZUMMERLAR

yoxud "klip fikrlash" shakliga QOBIQLANAYOTGAN AVLOD

Rustam BOYTO'RA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ta'lim va tarbiya, ma'naviyat va ma'rifati ko'ha, ayni paytda eskirmas mavzulardir. Ular asrlar davomida asosan, yozma manbalar, ta'lim muassasalari saboqlari, ota-ona tarbiyasi, qolaversa, jamoatchilik fikri bilan singdirib kelingan. Lekin shiddatli taraqqiyot, o'zgarishlar bu boradagi qarashlarimiz, tahlil va yondashuvlarimizni o'zgartirib yuboryapti. Chunki taraqqiyot davomida yangi qiyofadagi avlodlar yuzaga kelmoqda. Vaholanki, bu omillar muttasil yangilanib turadigan barcha avlodlar qiyofasiga ham tegishli.



AVLODLAR DUNYOQARASHI VA "GADJETLAR OLAMI"

Dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida o'quvchilarning bilimi yaqin vaqtlargacha o'zgacha mezonlar bilan o'lgangan. Soddaroq aytganda, ularning bilimi qanchalik ko'p narsa o'qigan va eslab qolganiga, darsda ularni qanchalik aytib bera olishiga ko'ra baholangan.

Endi esa konveyer ishlash asri — sanoatlashtirish davridan o'tish yuz beryapti. Ish jarayonlarini robotlashtirish va raqamli texnologiya sababli barcha eski ishlab chiqarish jarayonlari avtomatik tarzda bajarilmoqda. Demak, yoshlarni o'qiganlarini xotirada to'plashga emas, fikrlashga, ma'lumotlarni mustaqil izlab topish, tahlil qilish va tanqidiy baholashga o'rgatish talab etilmoqda.

Insonning bilim egallashi va shaxs sifatida shakllanishi bolalik va yoshlik yillarida ildiz otib mustahkamlanadi. Yangidan yangi texnik va texnologik

vositalar esa o'zidan avvalgilardan farqlanuvchi yangi avlodlar yuzaga kelishiga sabab bo'layotir.

Dunyo olimlari uzoq yillardan buyon qarashlari, fikrlash tarzi, munosabatlari butunlay boshqacha avlod shakllanishiga oid muammolarga javob topishga harakat qilib keladi. 1990-yillar boshida amerikalik tadqiqotchilar Neyl Xou va Uilyam Shtraus avlodlar nazariyasini yaratdi.

Bu mavzuda so'z yuritishdan maqsad shuki, barcha rivojlangan, aniqrog'i, kundalik hayotiga zamonaviy texnologiya kirib kelgan, ularsiz hayotini tasavvur eta olmaydigan yangi — "raqamli avlod" yuzaga keldi.

Dunyo tadqiqotchilari taxminan 1990-yillar oxiridan boshlab, obrazli aytganda, "gadjetlar olamida tug'ilib, ta'lim-tarbiya topayotganlar"ni shu avlod vakillari deb xulosa chiqargan. Keling, ushbu avlodga xos belgilar nimalardan iborat ekaniga e'tibor qarataylik.

"ZET" AVLODDA DIQQAT-E'TIBOR TARQOQ. ULAR KLIPLAR, QISQA VIDEOTASVIRLARGA KO'NIKKAN, UZUN MATNLARNI O'QIB O'ZLASHTIRISHGA TOQTASIZ DEB TA'KIDLANADI SHU MAVZUGA OID TADQIQOTLARDA.



"DUO QILING, GRIN-KARTADAN YUTIB OLAY"

"Yolg'oni o'n marta qaytarsang, bir kun kelib ching aylanadi", mazmunidagi kinoyali hikmat bor. Fikrlash tarzi oqsog, feyk xabarlaridan tortib, behayo suratu qisqa videolarni tinimsiz ko'rayotgan o'smir va yoshlarda bularning bari to'g'ri, degan ishonch uyg'ona boshlaydi (tinimsiz tomgan tomchi vaqt o'tib hatto toshni yorgani kabi).

Bularning bari ular ongida odatiy holat kabi o'rnatib, tahlil ko'nikmasini egallashga imkon bermaydi, uyat hissini yo'qota boshlaydi. Hatto ayrim yoshlarning hayotdagi maqsad va orzulari, intilishlari maydalanib ketishiga olib boradi.

Shu o'rinda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir va publitsist Shodmonqul Salom bilan O'zAning YouTube sahifasiga qo'yilgan videosuhbat matnidani parcha keltiramiz. Bu uning subyektiv fikri va xulosalari:

"...Odamning yashash sharoiti qancha osonlashsa, shuncha erkatoq, tanti bo'lib boraveradi. Shuning uchun bugun bir-biridan uzoqlashish, yolg'izlashish kuchayib, inson individuallashib qoldi. Yolg'izlik bugun, ayniqsa, ilmiy tilda aytganda, "Z" (zet) avlodni qamrab oldi. "Z" avlod deganda hech narsaga qiziqmaydigan, hech narsa uni ergashira olmaydigan avlod tushuniladi. Ana shu avlod bugun yolg'izlanib qoldi. Yoshlikdagi zerikish xavfli, keksalikdagi zerikish alamlari bo'ladi. Inson yolg'izlandi, zerikadi. Buni o'z vaqtda anglamayapmiz. Bu bizning katta fojiamiz.

...Ramazon oyi edi. Andijon viloyatiga xizmat safariga borgandik. Og'iz ochishga ketayotgan paytimiz mashinamiz chorrahaga to'xtatganda 20-21 yoshlardagi yigitcha idishda yo'ldagi odamlar og'zini ochsin deb suv uzatdi. Savobtalab yigit ekan, deya xursand bo'ldim. Rahmat deb suvni olsam, idishga "Duo qiling, grin-kartadan yutib olay", deb yozib qo'yibdi. Xafa bo'lib ketdim. 21 yoshli, hali o'n gulidan bir guli ochilmagan, uylanmagan yigitning ramazon oyida, muqaddas kunlarda eng katta orzusi shu ekan... Kitob nega kerak? Mana shu narsalarni o'rgatish uchun. Kitob o'qigan, adabiyotga yaqinlashgan insonlarning qalbi bo'ladi. Qalbi bor odam, hech qachon vatanga xiyonat qilmaydi..."

ULAR UCHUN INTERNET BU — HAYOT

Texnologiyalar juda tez rivojlanishi dunyo mamlakatlaridagi kabi O'zbekistonda ham dastlabki internet (zummerlar yoki "zet") avlod shakllanishiga sabab bo'ldi. Aslida, zomer — tovush signallarini uzatish uchun foydalaniladigan elektr qurilma. Shunga nisbat bergan holda kundalik hayotini kompyuter, gadjetlarsiz tasavvur eta olmaydigan bugungi avlod "zummerlar" deb atalgan.

"Zet" avlod uchun dunyo internet tarmog'i va gadjetlar biror vazifani hal etish vositasiga emas, shaxsiy munosabatlari o'rnatiladigan, nom chiqaradigan, obro'-e'tibor shakllanadigan, o'yin o'ynab chalg'iydigan, son-sanoqsiz videoliklarni tomosha qilib vaqt o'tkazadigan va boshqa yaxshi-yomon ko'plab hokozaga o'rnatilgan uchratish mumkin bo'lgan bir makon. Go'yo hayot yon-atrofa emas, shu kuticha (kompyuter, gadjetlardagi ovoz va tasvirlar jamlanmasi. Eng yomoni, ma'lumot va axborotlarga yondashuv noto'g'ri, ularni tanlash, tahlil qilish, tanqidiy yondashuv yo'q darajada.

Aslida, aynan ma'lumot va axborotlarni tanlay bilish va tahlil qilish juda muhim. Albatta, internetdan foydalanuvchilar har gal to'xtovsiz axborotlar oqimi tartibsizligi (xaos) bilan to'qnashadi. Bu esa tubsiz axborot makonidan foydalanishda etika qoidalarini

anglash, axborotni savodxonlik bilan izlash, uni tizimlashtirish va qayta ishlash asosida mediamadaniyat shakllanishini talab qiladi.

Ayni avlod borasida tadqiqot o'tkazayotgan va muayyan xulosalarga kelgan olimlar fikricha, "zummer" avlodning o'ziga xos yutuqlari bilan birga zaif jihatlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Olimlarning fikricha, bu avlod tafakkuri "klip fikrlash" shaklini olgan. Ya'ni ular axborot va ma'lumotlarni parcha-parcha, qisqa va yorqin obrazlar orqali qabul qilishga odatlangan. Ular muayyan voqea, badiiy yoki hujjatli ma'lumotni asosan, ko'rib eshitish orqali qabul qilish shaklini o'zlashtirib olgan. Bunday tarzda axborot olish savodli so'zlash, savodli yozishdan uzoqlashib yubormoqda. Bu esa bilim olish jarayonini boshqa yo'singga solib, mavzuni batafsil o'rganish, chuqurroq anglashdan chetlatadi.

"Z" avlod alohida auditoriya hisoblanadi. Biz ularni axborot ummoniga g'arq bo'lgan yoki yangiliklar to'fonida qolib ketgan deb o'ylaymiz, — deydi filologiya fanlari doktori Beruniy Alimov. — Vaholanki, yosh avlod faqat o'ziga kerak axborotni, xususan, qisqa hajmdagi matnlarni o'qiydi. Tahliliy materiallarga e'tibor bermaydi. Nima uchun? Sababi, ular har sohadan bir shingil yangilik olishni istaydi. Ularda "qisqa o'ylash"

(inglizcha "clip thinking", ruscha "клиповое мышление") juda yaxshi shakllangan. Bitta axborot mavzusiga chuqur kirib borishga yoki bir mavzuga atroflicha tahliliy yondashilgan materialni o'qib o'tirishga ularda vaqt ham, imkoniyat ham chegaralangan. Shundan kelib chiqib, ular biror masalaga jiddiy va chuqurroq kirishishga o'zida sabr-toqat topa olmaydi. Masalan, agar videoyujet bo'ladigan bo'lsa, undagi 1-2 daqiqalik axborotni yaxshi ko'rib, tomosha qiladi. Ular uchun matnli yangilikka nisbatan videoyangiliklar ko'proq qiziq...

*** "Zet" avlodda diqqat-e'tibor tarqoq. Ular kliplar, qisqa videotasvirlarga ko'nikkan, uzun matnlarni o'qib o'zlashtirishga toqtasiz deb ta'kidlanadi shu mavzuga oid tadqiqotlarda. Internetga suyanib o'sayotgan avlod mamlakat yoki dunyodagi muhim voqealar, sanalar, tarixiy va geografik nomlar kabi muhim ma'lumotlarni yodda saqlab qolishga harakat qilmaydi. Chunki kerakli ma'lumotni olish uchun internetdan foydalanib o'rgangan. Ular yaxshi xotira ishda, kundalik hayotda, o'qishda ham zarur ekanini, uni mashq qilib turish muhimligini tushunmaydi deya xavotirli xulosalar bermiqda olimlar.

MILLIY KONTENT YOKI JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT BILAN

"Agar biz O'zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishni o'z qo'limizga olmas ekanmiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho bermas ekanmiz, bu ishlar xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon yaratib bergan bo'lamiz. Chunki odamlardagi yangilik, tahliliy ma'lumotlar, real voqealarga bo'lgan ehtiyojni biz to'ldirmas ekanmiz, buni boshqalar qiladi. Bunga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi", deya ta'kidlagan edi davlatimiz rahbari joriy yil Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida.

Bugun dunyoda mamlakatlar iqtisodiyoti bilan birga jamiyatlar hayotining bir-biriga bog'langan holda rivojlanishi — globallashuv jarayoni kuchayib borayotir. Nafaqat yosh avlod, katta yoshdagilar hayotining ham ajralmas qismiga aylangan internet bu jarayonga, ayniqsa, madaniyat va ma'rifati borasidagi qarashlarimizga katta ta'sir ko'rsatayotganiga guvoh bo'lib turibmiz. Shu sababli fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tamoyili eng samarali vositaga aylangan.

Xorijiy OAV orqali tajovuzkor g'oyalarga qarshi milliy manfaatlar inobatiga olingan asarlar va axborotlar bilan javob qaytarish siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy, ta'limga oid

yoki ko'ngilochar mavzuda mediamakon — kontent yaratish eng samarali, dolzarb masalaga aylangan. Milliy kontentni rivojlantirish maqsadida Oliy Majlis Senati hamda Vazirlar Mahkamasi qayd qilgan. Mazkur qarorlar asosida milliy kontentni yaratish bo'yicha kompleks dastur ham tasdiqlangan.

Ochig'i, milliy ommaviy axborot vositalari, jumladan, internetda bu borada qilinayotgan ishlardan unchalik ko'ngil to'lmaydi. Fikrimizcha, kompleks dasturni sifati amalga oshirish uchun mas'ul etib belgilangan vazirliklar va idoralar, shuningdek, xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlaridan tashqari fuqarolarimizning faolligi yetishmayapti.

Hozir targ'ibot-tashviqot mablag' va qurollardan ham katta kuchga ega ekanini dunyoda bo'layotgan voqealar silsilasidan ham bilib turibmiz. Axborotga ega bo'lish hokimiyatga ega bo'lish, boshqarish ekanini yaqqol ko'rinib turibdi. Bu faqat tom ma'nodagi ahamiyatga ega ekanini to'liq anglash imkonini beradi. Madaniy merosni asrab-avaylashga bo'lgan e'tibor tufayli g'oyamizni ro'yobga chiqarib, avlodlar va mamlakatlarni bir-biriga bog'laydigan tarixiy film yaratildi. "Maxtumquli Firog'iy" badiiy filmi chinakam sinov va jamoamizning katta mehnati samarasidir. Suratga olish ishlari O'zbekiston va Turkmanistonda besh oy davom etdi. Uni suratga olishda haqiqiy davr nafasini berish uchun shoir yashagan muhitni jonlantirgan 50 dan ortiq dekoratsiya qurildi. Tomoshabinlar shoir zamonasining ruhini yaqindan his qilishi uchun jamoamiz Maxtumquli davri, uni ilhomlantirgan madaniyatning g'ozalligini va o'ziga xosligini namoyish etishga har tomonlama intildi.

Kinofestivalda 11 ta turkiy davlatning eng sara filmlari qatnashdi. Ushbu yutuq O'zbekiston va Turkmaniston hamkorligidagi madaniy aloqalarning yorqin natijasi sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur muvaffaqiyat yaratilgan imkoniyat va sharoitlar mevasi bo'lib, milliy kino san'atining xalqaro miqyosda tan olinayotganidan darakdir.

"Tirik tarix" turkum filmlar dasturidan Maxtumquli hayoti va ijodiga bag'ishlangan tarixiy-badiiy loyihaning joy olgani bejiz emas. Film o'zbek-turkman xalqlarining san'at va adabiyotda ham azaliy mustarakligini e'tirof etadi.

Nodir MAHMUDOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"TIRIK TARIX" TARIXIY YURISHINI BOSHLAGI

"Maxtumquli Firog'iy" filmi Qo'rqut ota kinofestivali OLIY MUKOFOTIGA LOYIQ KO'RILDI

E'tirof

Joriy yil may oyida "Tirik tarix" turkumidagi filmlar loyihasi taqdimoti o'tkazilgan edi. 2024-2030-yillarga mo'ljallangan mazkur strategik dastur eng qadimgi o'tmishimizdan tortib, yaqin tariximizgacha bo'lgan juda katta davrni qamrab olgan loyiha hisoblanadi.



O'zbekiston Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag'ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazkur yo'nalishdagi ishlar jadallashishi va tizimli yo'lga qo'yilishiga asos bo'ldi.

"Tirik tarix" loyihasida chet ellik hamkorlar, xususan, Ispaniya, Germaniya, Vengriya, Rossiya,

Turkmaniston, Belarus, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston kabi davlatlarning kino san'ati ustalari ham ishtirok etmoqda.

Turkumidagi filmlar asrlar qa'riga borib taqaladigan shonli tariximiz, jadid bobolarimizning ibratli faoliyati, zamon qahramonlari siymolarini aks ettiradi. Kuni kecha O'zbekiston va Turkmaniston kinoijodkorlari



hamkorlikda suratga olgan "Maxtumquli Firog'iy" tarixiy-badiiy filmi TURKSOY — Xalqaro turkiy madaniyat tashkilotining Qo'rqut ota kinofestivalida oliy mukofot — "Eng yaxshi film" nominatsiyasida g'olib bo'ldi. Mukofotni Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisi o'rinbosari Mehrijamol Mammedova topshirdi.

— Turkmanistonlik hamkasblarimiz bilan birgalikda suratga olgan, buyuk turkman shoiri Maxtumquli Firog'iy tavalludining 300 yilligiga bag'ishlangan "Maxtumquli Firog'iy" filmi butun umrini xalqqa, uning madaniyati va ma'naviy merosiga xizmat qilishga bag'ishlagan inson xotirasiga

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetlari tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtima — 2574. 41157 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy